

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI

*Ochilova Ozoda Zufar qizi*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada PISA tadqiqotidan ko'zlangan asosiy maqsad, ta'lim siyosati, o'quvchilarning kreativ fikrlash borasida xalqaro taqqoslash, PISA tadqiqotlariga oid bir qancha savollarga javoblar batafsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** PISA tadqiqoti, kreativ fikrlash, matematik savodxonlikni baholash, ijodkorlik, o'quvchi.

#### **Kirish**

O'zbekiston ta'lim tizimi ko'p yillar davomida bolalar xotirasini sinashga urg'u berib kelgan, PISA esa buning butunlay teskarisi: olingan bilimning amaliyotda qay darajada qo'llay olinishini tekshiradi.

PISA diqqatni o'n besh yoshli o'quvchilardan mantiqan kutish mumkin bo'lgan kreativ fikrlash jarayonlariga qaratadi. Uning maqsadi o'ta ijodkor shaxslarni aniqlab olish emas, balki g'oyalarni ifoda etish va aniqlashda o'quvchilar naqadar kreativ fikrlay olishini, bu ko'nikma, o'z navbatida, o'quv jarayoniga, maktab faoliyatiga va ta'lim tizimining boshqa jihatlariga qanday bog'liq ekanligini tahlil qilishdir. PISA tadqiqotidan ko'zlangan asosiy maqsad, ta'lim siyosati va tizimiga yaqqol natijalarga ega, o'quvchilarning kreativ fikrlash borasida xalqaro taqqoslash mumkin bo'lgan ma'lumotni taqdim etishdir.

Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (inglizcha: Programme for International Student Assessment) — turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. Bu dastur bo'yicha har uch yilda o'quvchilarning bilimni baholash maqsadida sinovlar o'tkaziladi. Hozirgi kungacha jami 8ta (2000, 2003, 2006, 2009, 2012, 2015, 2018 va 2022 yillar) PISA dasturi bo'yicha testlar o'tkazilgan bo'lib, keyingi sinovlar 2024 yilda bo'lishi rejalashtirilgan. Mamlakatimiz ham 2021 yildan bu dasturga qo'shilishga tayyorgarlik ko'rgan.

#### **PISA testlari o'zi nima?**

- Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OCED) tashabbusi bilan har 3 yilda bir marta The Programme for International Student Assessment (PISA) xalqaro o'quvchilarni baholash testlari o'tkaziladi.
- PISA testlari xalqaro tan olingan o'lchovdan foydalanib, o'qitish tizimlari, maktablar, o'qituvchilar va o'quvchilardan ma'lumotlarni to'plab, o'quvchilar bilimni baholaydi.

**Xo'sh PISA test tarkibi qanday ?**

PISA testlari 5 ta yo'nalish bo'yicha o'qish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik o'tkaziladi. Testlarda asosiy e'tibor o'quvchilarning mazkur yo'nalishlar bo'yicha eng asosiy tushunchalarni bilishi, bazaviy bilim va ko'nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi.

PISA sinovlarida to'rt xil sinov usulidan foydalaniladi:

1. Bir javobli testlar;
2. Bir nechta javobli testlar;
3. Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar;
4. Biror muammoning yechimi bo'yicha o'quvchi fikri (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar bo'ladi, o'quvchi javobi test tuzuvchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, o'quvchi ijodkorligi qo'llab quvvatlanadi).

Bundan tashqari testlar bilan bir vaqtda o'quvchilardan anketalar ham olish nazarda tutilgan.

**PISA testida qanday qatnashish mumkin?**

O'quvchilar 2 bosqichda saralab olinadi. 1-bosqichida qishloq va shahar hududlaridan aralash 150 maktab tanlab olinadi. Keyin har bir maktabdan 42 o'quvchi ixtiyoriy tanlanadi. Test natijalari 3 guruhga ajratiladi: o'rtachadan yuqori, o'rtacha va past

2022 yilda O'zbekiston maktablari 15 yoshli o'quvchilar bilimni baholash bo'yicha xalqaro dastur – PISA imtihonlarida ilk marta ishtirok etgan edi. Sinov natijalariga ko'ra, o'zbekistonlik bolalar 81 ta mamlakat orasida matematika bo'yicha 72-o'rinni, tabiiy fanlar va o'qish savodxonligi yo'nalishlarida 80-o'rinni egalladi.

Iqtisodchi Behzod Hoshimov PISA xulosalariga tayanib, o'quvchilarning fanlar bo'yicha yuqori savodxonlikka ega bo'lishi mamlakatning qanchalik boyligiga ham bog'liqligini aytgan. "Mamlakat qancha boyroq bo'lsa — 15 yoshli o'quvchilarning matematik qobiliyati, o'qish qobiliyati va ilm-fanni bilish qobiliyati balandroq bo'ladi", – deb yozgan u

**PISAda ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi?**

Birinchidan. PISA natijalari 2023 yil oxirida e'lon qilinadi. Menimcha, bu juda muhim qaror. Mamlakatlar xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishlari kerak, chunki ular bizning ichki holatimizdan emas, balki xalqaro standartlar nuqtai nazaridan tashqi baho berishadi.

Ikkinchidan, ilk yillardan qandaydir juda yaxshi, ijobiy natijalar olish haqida gapirib bo'lmaydi. Rossiya 2000 yildan beri xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etib kelmoqda va PISA bo'yicha bizning natijalar o'rtacha xalqaro darajadan past edi. Faqat 18 yil davomida ta'limga katta sarmoya kiritish orqali PISA tadqiqotidagi natijalarimiz Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ning o'rtacha ko'rsatkichlariga yaqinlashdi. Buni qanday izohlash mumkin? Bu bizning rus maktabimiz (qaysidir ma'noda sovet maktabi) ko'proq fan natijalariga, ya'ni yosh avlodga yaxshi, chuqur va uzoq muddatli bilimlarni berishga e'tibor qaratganligi bilan izohlanadi.

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

Ijodkorlikni rivojlantirishga bunaqa ehtiyoj yo‘q edi, olingan bilimlar barcha o‘quvchilar tomonidan turli hayotiy vaziyatlarda ishlatilishini ta‘minlash uchun vaqt ham bo‘lmagan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kun.uz/news/2023/12/07/pisa-natijalari-elon-qilindi-ozbekistonlik-oquvchilar-oxirgi-10-talikdan-joy-oldi>
2. <https://googol.uz/post/pisa-test-nima>
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro\\_o%CA%BBquvchilarni\\_baholash\\_dasturi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_o%CA%BBquvchilarni_baholash_dasturi)
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/09/14/education/>
5. <https://ilmiybaza.uz/document/pisa-tadqiqotlarining-xususiyatlari-pisa-tadqiqotlari-haqida-umumiy-malumotlar/>
6. <https://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/download/2532/1055>